

**KONFERENSIYALAR.COM**

ANJUMANLAR PLATFORMASI

# **O'ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI**

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYA MATERIALLARI**

**MAY, 2026-YIL**





# **O'ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA'LIM ISTIQBOLLARI**

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY  
KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, may

**TOSHKENT-2026**

**ISBN 978-9910-8337-6-2**

**O‘ZBEKISTON – 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI.** I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari. – Toshkent: Scienceproblems team, 2026. – 70 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** “Scienceproblems Team” MChJ

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2026-yil, 8-may

**Mas’ul muharrir:**

Isanova Feruza Tulqinovna

**Annotatsiya**

Mazkur nashrda “O‘zbekiston — 2030: innovatsiya, fan va ta’lim istiqbollari” nomli I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi doirasida taqdim etilgan ilmiy maqolalar to‘plami jamlangan. Unda O‘zbekistonning turli oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasalari, tarmoq tashkilotlari, mustaqil tadqiqotchilar tomonidan taqdim etilgan ijtimoiy-gumanitar, iqtisodiyot, huquq, biologiya, tibbiyot va boshqa sohalarga oid maqolalar kiritilgan. Maqolalarda ilm-fanning zamonaviy yo‘nalishlari, innovatsion texnologiyalar, ta’lim islohotlari hamda barqaror taraqqiyotga oid masalalar muhokama qilingan. To‘plam akademik izlanishlar, amaliy tajribalar va ilmiy xulosalarni birlashtirgan holda, fanlararo integratsiyani chuqurlashtirish va ilmiy hamkorlikni kuchaytirishga xizmat qiladi.

**Kalit so‘zlar:** ilmiy-amaliy konferensiya, innovatsiya, fan va ta’lim, O‘zbekiston 2030, barqaror rivojlanish, ilmiy izlanishlar, fanlararo integratsiya, ilmiy hamkorlik, texnologik taraqqiyot, zamonaviy ta’lim.

**ISBN 978-9910-8337-6-2**

**Barcha huqular himoyalangan.**

© Scienceproblems team, 2026-yil

© Mualliflar jamoasi, 2026-yil

## MUNDARIJA

### **BIOLOGIYA FANLARI**

*Мадаминов Рахматилло*

ПРИГОТОВЛЕНИЕ ПИТАТЕЛЬНЫХ СРЕД ДЛЯ БАКТЕРИЙ И ГРИБОВ ..... 5-7

### **TARIX FANLARI**

*Qirg'izov Baxtiyor*

FARG'ONA VILOYATIDAGI ZIYORATGOHLARNI AYRIMLARINING TARIXI VA ULAR BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR TAHLILI .....8-12

### **IQTISODIYOT FANLARI**

*Mirzayev Shoxrux*

KON-METALLURGIYA SANOATIDA AMALGA OSHIRILAYOTGAN MEGA INVESTITSIYA LOYIHALARINING O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI VA ULARNING SAMARADORLIGIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR ..... 13-15

*Aliqulov Abbos*

ARALASH MA'LUMOTLAR ASOSIDA REGRESSIYA MODELLARINI BAHOLASHDAGI YASHIRIN SEGMENTLAR MUAMMOSI ..... 16-22

### **FALSAFA FANLARI**

*Boyxonov Umidjon*

ICHKI ISHLAR ORGANLARIDA INSON HUQUQLARI USTUVORLIGI KONSEPSIYASINING NAZARIY VA AMALIY ASOSLARI ..... 23-28

### **FILOLOGIYA FANLARI**

*Isomidinova Zilola*

RAQAMLI OAVDA MUALLIFLIK HUQUQI MUAMMOLARI ..... 29-31

*Raximjoniva Nozima*

ZAMONAVIY MEDIA MAKONIDA TURIZM KONTENTINING O'RNI VA RIVOJLANISH TENDENSIYALARI ..... 32-35

*Isanova Feruza*

O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA DIPLOMATIK LEKSIKANING SEMANTIK XUSUSIYATLARI ..... 36-39

### **YURIDIK FANLAR**

*Мухиддинова Эльзода*

ИНСТИТУТ НЕДОПУСТИМОСТИ ДОКАЗАТЕЛЬСТВ В УГОЛОВНОМ ПРОЦЕССЕ: ОБОСНОВАНИЕ НЕЗАВИСИМОСТИ И ОБОСОБЛЕННОСТИ ОТ ДРУГИХ УГОЛОВНО-ПРОЦЕССУАЛЬНЫХ ИНСТИТУТОВ ..... 40-43

*Хайдарова Хилола*

МЕЖДУНАРОДНО-ПРАВОВЫЕ ПРОБЛЕМЫ ЗАЩИТЫ ЦИФРОВЫХ ПРАВ ЧЕЛОВЕКА В УСЛОВИЯХ РАЗВИТИЯ ИСКУССТВЕННОГО ИНТЕЛЛЕКТА ..... 44-48

*Shorasulova Gulnoza*

RAQAMLI KRIMINALISTIKA TUSHUNCHASI VA UNING QONUN USTUVORLIGINI TA'MINLASHDAGI O'RNI ..... 49-54

## **PEDAGOGIKA FANLARI**

*Nizomova Bashoratxon, Mirazamova Mahliyo*

ZOOLOGIYA TA'LIMIDA TAYANCH BELGILAR (SXEMA, JADVAL, GRAFIK) VA MULTIMEDIA  
TAQDIMOTLARIDAN FOYDALANISH SAMARADORLIGINI OSHIRISH ..... 55-58

*Xaydarova Namunaxon*

GEYMIFIKATSIYA TEXNOLOGIYASI ASOSIDA BO'LAJAK MAKTABGACHA TA'LIM  
TARBIYACHILARINING KASBIY KOMPETENSIYASINI RIVOJLANTIRISHGA QARATILGAN  
MEXANIZMNI ISHLAB CHIQISH ..... 59-61

*Adamatov Anvar*

KOREYA TA'LIM TIZIMIDAGI PEDAGOGIK INNOVATSIYALARNING GLOBAL TA'LIM  
KONTEKSTIDAGI AHAMIYATI ..... 62-65

## **SIYOSIY FANLAR**

*Xolmatov Saidbek*

ERON ISLOM RESPUBLIKASINING MINTAQAVIY STRATEGIYASI VA SURIYA OMILINING  
GEOSIYOSIY AHAMIYATI ..... 66-69

## SIYOSIY FANLAR

### ERON ISLOM RESPUBLIKASINING MINTAQAVIY STRATEGIYASI VA SURIYA OMILINING GEOSIYOSIY AHAMIYATI

**Xolmatov Saidbek O'lmasjon o'g'li**

O'zbekiston xalqaro islomshunoslik akademiyasi

Xalqaro munosabatlar va zamonaviy siyosiy jarayonlaryo'nalishi magistranti

Email: [saidbekxolmatov77@gmail.com](mailto:saidbekxolmatov77@gmail.com)

Tel: +998 90 858 44 63

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada Eron Islom Respublikasining tashqi siyosatiga xos asosiy xususiyatlar hamda unda Suriya omilining o'rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda Eron tashqi siyosatining ideologik asoslari, jumladan, Islom inqilobi g'oyalari, realpolitik tamoyillari va "qarshilik o'qi" konsepsiyasi yoritiladi. Shuningdek, Eronning Iroq, Suriya, Livan va Yaman kabi davlatlardagi siyosiy va harbiy ta'siri ham ko'rib chiqiladi. Maqolada yadroviy dastur bilan bog'liq muammolar, Yadro kelishuvi (JCPOA) doirasidagi jarayonlar hamda AQSh va Isroil bilan munosabatlardagi keskinliklar tahlil etiladi. Eron xavfsizlik siyosatining diplomatik, harbiy va gibril vositalarga asoslangani ham ochib beriladi. Bundan tashqari, mamlakat ichki ijtimoiy muammolari va ularning tashqi siyosatga ta'siri, shuningdek, Eronning mintaqaviy kuchlar muvozanatidagi o'rni yoritiladi. Mazkur maqola Eronning mintaqaviy geosiyosiy jarayonlardagi rolini tushunishga xizmat qiladi.

**Kalit so'zlar:** Eron islom inqilobi, realpolitik, tashqi siyosat, "qarshilik o'qi" Yadro kelishuvi (JCPOA).

### DISTINCTIVE FEATURES OF IRAN'S FOREIGN POLICY AND THE SYRIAN FACTOR

**Kholmatov Saidbek O'lmasjon o'g'li**

Master's Student in International

Relations and Contemporary Political Processes

International Islamic Academy of Uzbekistan

**Annotation.** This article analyzes the main distinctive features of the foreign policy of the Islamic Republic of Iran, with particular emphasis on the role of the Syrian factor. The study explores the ideological foundations of Iran's foreign policy, including the ideas of the Islamic Revolution, principles of realpolitik, and the concept of the "Axis of Resistance." It also examines Iran's political and military influence in countries such as Iraq, Syria, Lebanon, and Yemen. The article discusses issues related to Iran's nuclear program, the processes within the framework of the Joint Comprehensive Plan of Action (JCPOA), and tensions in relations with the United States and Israel. It further highlights that Iran's security policy is based on a combination of diplomatic, military, and hybrid tools. In addition, the study addresses Iran's internal social challenges and their impact on foreign policy, as well as the country's role in maintaining the regional balance of power. The article contributes to a better understanding of Iran's role in regional geopolitical processes.

**Key words:** Islamic Revolution of Iran, realpolitik, foreign policy, "Axis of Resistance," Nuclear Deal (JCPOA)

Hech bir Yaqin Sharq davlati Erondek keng geografik hudud, strategik joylashuv, katta va nisbatan savodli aholi, qadimiy tarix hamda ulkan tabiiy resurslar uyg'unligiga ega emas. Ushbu omillar Tehronda kim hokimiyatda bo'lishidan qat'i nazar, mamlakatning mintaqaviy ustunlikka intilishini doimiy ravishda shakllantirib keladi[1.B-19]. Muhammad Rizo Pahlaviy davrida Eron tashqi siyosati ko'proq dunyoviy va millatchilik ruhida olib borilib, mamlakatning xalqaro tizimdagi mavqeini mustahkamlash hamda G'arb bilan yaqin hamkorlikni

rivojlantirishga qaratilgan edi. Bu davrda Eron AQShning mintaqadagi muhim ittifoqchilaridan biri sifatida ko'rilgan va uning tashqi siyosati global tizimga integratsiyalashuvga yo'naltirilgan edi.

Biroq Eron islom inqilobidan so'ng mamlakat tashqi siyosatida tub burilish yuz berdi. Yangi siyosiy tuzum Islom Respublikasi tashqi siyosatni antiimperialistik va islomiy-inqilobiy mafkura asosida qayta shakllantirdi. Ruhulloh Xomeyniy tomonidan ilgari surilgan g'oyalarga ko'ra, Eron nafaqat milliy manfaatlarini himoya qiluvchi davlat, balki butun musulmon dunyosida "zulmga qarshi kurashuvchi" markaz sifatida namoyon bo'lishi kerak edi. Natijada, tashqi siyosat faqat realpolitik asosida emas, balki mafkuraviy maqsadlar bilan ham chambarchas bog'lanib ketdi.[2. B-47]

Islom Respublikasi tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlaridan biri AQSh va uning mintaqadagi ittifoqchilariga qarshi qat'iy qarshilik ko'rsatishdan iboratdir. Eron 1979-yilgi garov inqirozidan boshlab ikki davlat o'rtasidagi munosabatlar keskin tus olib, o'zaro ishonchsizlik va qarama-qarshilik asosida rivojlandi. Ushbu ziddiyat vaqt o'tishi bilan an'anaviy diplomatik raqobatdan ko'ra murakkabroq asimmetrik qarama-qarshilik shakliga kirdi. Eron to'g'ridan-to'g'ri harbiy to'qnashuvdan qochgan holda, proksi kuchlar va gibrid strategiyalar orqali AQSh manfaatlariga qarshi chiqishni afzal ko'rdi.

Shu bilan birga, Eron tashqi siyosatining muhim mafkuraviy komponentlaridan biri Isroil davlatiga nisbatan keskin salbiy munosabatdir. Inqilobdan so'ng Isroilning legitimligi rad etilib, sionizm G'arb imperializmining ajralmas qismi sifatida talqin qilindi.[3. B-71] Bu qarashlar asosida Eron mintaqada Isroilga qarshi turuvchi kuchlarni qo'llab-quvvatlash siyosatini olib bordi. Xususan, Hizbulloh kabi tashkilotlarga ko'rsatilayotgan yordam Eronning mintaqaviy strategiyasida muhim o'rin egallaydi. Bu orqali Eron bevosita harbiy to'qnashuvsiz ham Isroilga bosim o'tkazish imkoniyatiga ega bo'lmoqda.

Eron tashqi siyosatining yana bir muhim jihati bu mintaqaviy ta'sirni kengaytirishda proksi kuchlardan samarali foydalanishidir. Ayniqsa, 2003-yilda Saddam Husayn rejimining ag'darilishi ortidan yuzaga kelgan siyosiy bo'shliq Eron uchun yangi imkoniyatlar yaratdi. Eron Iroqdagi shia siyosiy kuchlari va qurolli guruhlar bilan yaqin aloqalar o'rnatib, ushbu davlatni o'zining strategik ta'sir doirasiga kiritishga muvaffaq bo'ldi. Bu esa Eron uchun nafaqat xavfsizlik zonasini kengaytirish, balki AQShga qarshi mintaqaviy bosimni kuchaytirish imkonini ham berdi.

Eron tashqi siyosatida Suriya alohida strategik ahamiyat kasb etadi. Suriyaning sobiq prezidenti Bashar al-Assadning 2024 yil oxirida hokimiyatdan chetlatilishi va Prezident Ahmad al-Sharaa boshchiligida yangi hukumatning shakllanishi Yaqin Sharq geosiyosatida tub burilish nuqtasini belgiladi. Bu voqea nafaqat Assadlar oilasining ellik yildan ortiq davom etgan hukmronligiga yakun yasadi, balki Eronning Suriyadagi roli va strategiyasini keskin qayta ko'rib chiqishga majbur qildi.

Ko'p yillar davomida Eron Assadning eng yaqin ittifoqchilaridan biri bo'lib, milliardlab dollar mablag' sarfladi, harbiy maslahatchilar va ittifoqchi qurolli guruhlarini joylashtirdi hamda Suriyaning siyosiy va iqtisodiy tizimiga chuqur kirib bordi. Bashar al-Assad boshchiligidagi hukumat bilan ittifoq Eronning Yaqin Sharqdagi geosiyosiy strategiyasining markaziy elementlaridan biri hisoblanar edi. Suriya Eron uchun nafaqat muhim ittifoqchi, balki Livandagi Hizbulloh bilan aloqa o'rnatish imkonini beruvchi geografik ko'prik vazifasini ham

bajaradi. Shu sababli, Suriya fuqarolar urushi boshlanishi Eron uchun jiddiy geosiyosiy sinovga aylandi.

Mazkur urush davomida Eron Assad rejimini qo'llab-quvvatlash uchun katta miqdorda harbiy, moliyaviy va tashkiliy resurslarni safarbar etdi.[4. B-78-81] Eronning Inqilobiy gvardiyasi, shuningdek, unga yaqin bo'lgan turli qurolli guruhlar Suriyada faol ishtirok etdi. Bu yordam nafaqat Assad hokimiyatini saqlab qolishda muhim rol o'ynadi, balki Eronning mintaqadagi ta'sirini yanada mustahkamladi. Natijada "qarshilik o'qi" deb ataluvchi geosiyosiy blok shakllandi. Ushbu blokka Suriya hukumati, Hizbulloh, Iroqdagi shia guruhlar va Yaman husiylari kiradi hamda ular o'zaro muvofiqlashtirilgan tarzda faoliyat yuritadi. 2024-yilning dekabr oyida uzoq davom etgan Assad oilasing hukumronligi asosan sunniylardan iborat bo'lgan „Hayat tahrir ash Shom“ guruhi tomonidan ag'darildi. Muhammad al Jo'lony esa Suriyadagi muvaqqat hukumat rahbariga aylandi. Ahmad ash Shara nomi bilan davlatni boshqarayotgan Jo'lony bugun shia Eroni bilan munosabatlarni juda ehtiyotkorlik bilan amalga oshirmoqda. Ayni vaqtda Eronning Suriyani amaldagi hokimiyat bilan aloqalarni normallashtirishga urinishlari besamar qolmoqda. Eronning Suriyaning inqilobdan keyingi hukumati bilan istamay amalga oshirgan yaqinlashuvi sovuq strategik mantiqqa asoslangan edi: "Eron Suriyada hokimiyat kimning qo'lida bo'lishidan qat'i nazar, u bilan do'stona munosabatlarni saqlashga majbur, chunki ular bu mamlakatni Isroil va AQShga qarshi kelajakdagi operatsiyalar uchun zarur deb bilishadi". Boshqacha aytganda, hatto Suriya rahbariyati tubdan o'zgargan bo'lsa ham, Suriyaning geografiyasi va strategik ahamiyati Eron uchun o'sha-o'sha qolardi.[5. B-8]

Shuningdek, Eronning tashqi siyosatida yadroviy dastur ham muhim o'rin tutadi. 2015-yilda imzolangan Yadro kelishuvi (JCPOA) Eron uchun xalqaro sanksiyalarni yumshatish imkonini yaratgan edi. Biroq 2018-yilda AQShning ushbu kelishuvdan chiqishi vaziyatni yana keskinlashtirdi. Natijada Eron yadroviy dasturini qayta faollashtirib, uni siyosiy bosim vositasi sifatida qo'llay boshladi. Bu esa o'z navbatida xalqaro maydonda Eron atrofidagi ziddiyatlarni yanada kuchaytirdi.

**Xulosa.** Eron Islom Respublikasining tashqi siyosati murakkab va ko'p qatlamli xarakterga ega bo'lib, unda mafkuraviy tamoyillar va pragmatik geosiyosiy manfaatlar o'zaro chambarchas bog'langan holda namoyon bo'ladi. Mamlakat tashqi siyosatining asosiy yo'nalishlari Islom inqilobi g'oyalari, antiimperialistik yondashuv, shuningdek, mintaqaviy kuchlar muvozanatida o'z ta'sir doirasini kengaytirishga qaratilgan realpolitik strategiyalar bilan belgilanadi. Shu jihatdan Eron tashqi siyosati nafaqat ideologik asosga, balki amaliy xavfsizlik va strategik manfaatlarga ham tayanadi.

Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, Eronning "qarshilik o'qi" konsepsiyasi uning mintaqaviy siyosatining markaziy ustunlaridan biri bo'lib, bu tizim orqali Tehron Iroq, Suriya, Livan va Yaman kabi davlatlarda o'z ta'sirini proksi kuchlar vositasida mustahkamlab kelmoqda. Ayniqsa, Suriya omili Eron strategiyasida alohida o'rin egallab, u nafaqat geografik bog'lovchi hudud, balki Eronning Livandagi ittifoqchilari bilan uzluksiz aloqa tizimini ta'minlovchi muhim geosiyosiy ko'priki sifatida xizmat qilgan. Shu bilan birga, Eron tashqi siyosati doimiy ravishda AQSh va Isroil bilan keskin raqobat sharoitida shakllanib kelmoqda. Bu raqobat an'anaviy diplomatik darajadan chiqib, asimmetrik qarama-qarshilik va gibrid strategiyalar ko'rinishiga ega bo'lgan. Yadroviy dastur va JCPOA atrofidagi jarayonlar esa

Eronning xalqaro tizimdagi pozitsiyasini yanada murakkablashtirib, uni bir tomondan bosim ostida bo'lgan, ikkinchi tomondan esa muzokara salohiyatiga ega davlat sifatida namoyon etmoqda.

**Adabiyotlar/Литература/References:**

1. Phillips, C. The Battle for Syria: International Rivalry in the New Middle East. New Haven: Yale University Press, 2016
2. YANGI YAQIN SHARQ": KURDISTON OMILINING GEOSIYOSIY JIHATLARI. Farhod Karimov.
3. ERON MILLIY-MINTAQAVIY XAVFSIZLIK SIYOSATI. Avazbekov Faxriddin.
4. Youngs, R. Geopolitics and Democracy in the Middle East. London: FRIDE, 2015
5. IRAN'S FOREIGN POLICY IN SYRIA BEFORE AND AFTER LIBERATION FROM THE ASSAD REGIME Mutaa Aladhmi<sup>1</sup>, Syed Tahir Abbas<sup>2</sup>

# O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM ISTIQBOLLARI

**I RESPUBLIKA ILMIY-AMALIY KONFERENSIYASI MATERIALLARI**

2026-yil, 10-may

**Mas’ul muharrir:** *F.T.Isanova*  
**Texnik muharrir:** *N.Bahodirova*  
**Diszayner:** *I.Abdihakimov*

O‘ZBEKISTON — 2030: INNOVATSIYA, FAN VA TA’LIM  
ISTIQBOLLARI. I Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi materiallari.  
– Toshkent: Scienceproblems team, 2026. – 70 bet.

**Elektron nashr:** <https://konferensiyalar.com>

**Konferensiya tashkilotchisi:** Scienceproblems Team

**Konferensiya o‘tkazilgan sana:** 2026-yil, 8-may

**ISBN 978-9910-8337-6-2**

**Barcha huqular himoyalangan.**  
© Scienceproblems team, 2026-yil.  
© Mualliflar jamoasi, 2026-yil.